

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

JUMANQO'ZIYEV O'KTAMJON O'TKIRJON O'G'LI

DINAMIK SAYTLARNI YARATISHNING DOLZARB MASALALARI


5A110701-Ta'limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: t.f.n, dotsent S. Haydarova


“16” iyun 2020-yil

 imzo

Kafedra mudiri: t.f.n I. Siddiqov

“Himoyaga tavsiya etildi”


“17” iyun 2020-yil

 imzo

Magistratura bo'limi boshlig'i: Phd. O.O.Bozorov

“Himoyaga tavsiya berildi”

“19” iyun 2020-yil

 imzo



Qo'qon - 2020

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. WEB SAYTLAR VA ULARNI YARATISH IMKONINI BERUVCHI DASTURLAR.....	7
1.1. Web texnologiyalarning asosiy tushunchalari.....	7
1.2. Web sahifalar yaratishga mo'ljallangan dasturlar.....	13
1.3. PHP dasturlash tili va uning imkoniyatlari.....	18
II BOB. PHP WEB DASTURLASH TILI VA MYSQL MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMI.....	35
2.1.PHP Web dasturlash tili.....	35
2.2.MySQL ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi.....	49
2.3.Web dasturni sozlash va undan foydalanish.....	57
III BOB. INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI DINAMIK SAYTINI YARATISH.....	63
3.1. Informatika o'qitish metodikasi kafedra web resurslarini yaratish texnologiyasi.....	63
3.2. Web saytdan foydalanish yo'riqnomasi.....	78
XULOSA.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83
ILOVALAR.....	

KIRISH

Magistrlik dissertasiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonida belgilangan vazifalarning samarali yechimini to‘liq ta‘minlash maqsadida oliy ta‘lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta‘lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash maqsadida Oliy ta‘lim tizimini 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan¹ hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi “PF-5847-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash maqsadida oliy ta‘lim tizimida masofaviy talim va boshqaruvni amalga oshirish, funksional imkoniyatlarini va moddiy texnik bazalardan samarali foydalanib kelinmoqda².

Hozirgi kunda aahborot texnologiyalariga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan bir qatorda web saytlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kundan kunga ortib bormoqda. Shularni hisobga olgan holda hozirgi kunda oliy ta‘limda dinamik web saytlarni yaratish va unlardan foydalanish boshqaruv tizimini aptimallashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning ob‘ekti pedagogika sohalari bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari (QDPI) ning dinamik saytlari hisoblanadi. **Tadqiqot predmetini** esa dinamik saytlar yaratishda qo‘llaniladigan PHP, JavaScript, HTML, CSS, MySQL dasturiy tillarining imkoniyatlari va funksiyalari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi dinamik saytlar yaratishning dasturiy, texnik muammolarini o‘rganish hamda PHP, JavaScript, HTML, CSS dasturlash

¹ <https://lex.uz/docs/-3107036>

² <https://lex.uz/docs/4545884#4547875>

tillari va MySQL ma'lumotlar bazasi serverining nazariy va amaliy jihatlarini amaliyotga tadbiiq etishdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat. Tadqiq etilayotgan muammoga oid ilmiy-metodik, texnik adabiyotlarni tahlil etish;

dinamik saytlar bo'yicha jahon tajribasini o'rganish;

dinamik saytlarning dasturiy va texnik muammolarini ko'rib chiqish va loyihalash;

PHP, JavaScript, HTML, CSS dasturlash tillari va MySQL ma'lumotlar bazasi serverining imkoniyatlarini o'rganish;

pedagogika sohalari bo'yicha oliy ta'lim muasasalari kafedralarida innovatsion boshqarish uchun dinamik saytlarni yaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagiladan iborat. Web saytlar, ularni yaratish imkonini beruvchi dasturlar va ularning asosiy tushunchalari, imkoniyatlari ochib berilgan;

PHP, JavaScript, HTML, CSS, MySQL dasturlaridan foydalanilgan holda Qo'qon davlat pedagogika insituti Fizika-matematika fakulteti informatika oqitish metodikasi kafedrasining dinamik saytini yaratildi;

web-sahifaga kirishga imkon beradigan kod web-serverning tadqiq etilishi natijasida HTML-sahifa mijozning web-brauzerida ko'rsatilishi imkoniyati yaratildi. Ular dinamik tarkibni yaratish uchun server va mijoz tomoni skriptlarining kombinatsiyasidan foydalanadilar.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Qo'qon davlat pedagogika insituti informatika o'qitish metodikasi kafedrasining dinamik sayti yaratilsa birinchidan-kafedra to'g'risidagi barcha ma'lumotlar bilan nafaqat mamlakatimiz balki xorijiy mamlakatlarda ham tanishish imkoniyati yaratiladi ikkinchidan insitut imijini shakilanishiga hissa qoshiladi uchinchidan WEB – tarmog'ida foydalanuvchilar bilan aloqa uchun formalar yaratilib, qidiruv funksiyalari hamda o'zaro axborot almashinish imkoniyatlari yaratila boshlandi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Ю. Е. Едомский, Максим Кузнецов, Владимир Дронов, Алексей Гладкий-HTML, JavaScript, PHP va MySQL-dan foydalangan holda web-sahifalarni yaratish, CSS-dan foydalangan holda web-sahifalarni formatlashtirish masalalari muhokama qilinadi. PHP asoslari va odatiy skriptlarni yozish namunalari keltirilgan. PHP va phpMyAdmin dasturidan foydalanib MySQL ma'lumotlar bazalarini ishlash va boshqarish usullari tavsiflangan.

Ларри УЛЬМАН PHP - HTML ichiga o'rnatilgan server platformasidagi skript tiliga bag'ishlangan. Quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: til sintaksisi, satrlar va boshqaruv tuzilmalari, massivlar va oddiy iboralar, funktsiyalar; skriptlaringizni disk raskadrovka qilishni tasvirlaydi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magisstrlik dissertatsiya ishining nazariy ahamiyati shundaki, dinamik saytlarni yaratish va ularning dasturiy, texnik muammolarini o'rganish bugungi kundagi o'rnini, saytlar yaratish, web dasturlarining turlari va ularning imkoniyatlari, Denwer dasturini o'rnatish, PHP dasturini sozlash hamda foydalanishning imkoniyatlari haqida nazariy materiallar yig'ishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: shundan iboratki, dinamik saytlar yuzasidan tadqiq qilingan materiallardan foydalanib, "Informatika o'qitish metodikasi kafedrası" saytni ishlab chiqish. Bu sayt "Informatika o'qitish metodikasi kafedrası" haqida to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining metodologik asosi. Dissertatsiyada tizimlashtirish, statistik, qiyosiy kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Web dasturlashga oid O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda web dasturlashga oid mamlakatimiz va horijiy mutaxassislar tomonidan yaratilgan nazariyalari.

–birinchi bosqichda tadqiqot muammosi bo'yicha tegishli adabiyotlar, o'quv rejalari va dasturlarni tahlil qilib, dastlabki materiallar to'plandi;

–ikkinchi bosqichda PHP dasturi va HTML tili haqida ma’lumot, PHP dasturini o’rnatish va unga mos ravishda ilmiy tajriba ishlarini olib borish maqsad qilib qo’yildi va shu asosda tajriba–sinov ishlari olib borildi.

Olingan asosiy natijalar: Magistrlik dissertatsiya ishida PHP dasturlash tili, MySQL va HTML tili imkoniyatlari aytib o’tildi va uning imkoniyatlaridan foydalanib informatika o’qitish metodikasi kafedrasida dinamik sayti yaratildi.

Tadqiqot tuzilmasining tavsifi: Ushbu magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3ta bob xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 84 betni tashkil etadi.

I-BOB. WEB SAYTLAR VA ULARNI YARATISH IMKONINI BERUVCHI DASTURLAR

1.1. Web texnologiyalarning asosiy tushunchalari

Internet tarixi. Internetning paydo bo'lishi tarixi 60-yillarning oxirida Amerika hukumati tomonidan asos solingan ARPANet (Advanced Research Projects Agency tashkiloti) hisoblash tarmog'iga borib taqaladi. Tarmoq harbiy tashkilotlarga xizmat qilgan.

1980 yillar boshlarida ma'lumotlarni uzatishni boshqarish protokoli TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet Protocol) ga asos solindi. Taxminan shu vaqtda ma'lum bo'ldiki, TCP/IP dan turli milliy va xalqaro darajadagi kompyuter tarmoqlarini bog'lashda foydalanish mumkin.

1989 yilning oxirida ARPANet mukammal holga etib keldi, lekin bu vaqtga kelib ko'pgina univetsitetlar va ilmiy muassasalar Internetga ulangan edilar. 1990 yillar boshlarida korporatsiyalar ham Internetdan elektron pochta orqali ma'lumotlar almashishda aktiv ishtirok etardilar. U vaqtlarda Milliy Ilmiy fond tijorat maqsadida Internetdan foydalanishni ta'qiqlagan edi. 1991 yilda bu cheklash bekor qilinadi va Internetdan tashkilot, muassasa, nohukumat tashkilotlarining foydalanish darajasi ortdi, shuningdek, tijorat maqsadida Internetdan keng foydalanila boshlandi (Internet magazinlar, Internet reklamalar va h.k.). 1993 yilda birinchi web-brauzer Mosaic paydo bo'ldi.

World Wide Web. WWW (World Wide Web) – bu qanaqadir Internetdan ajratilgan ma'lum bir joy emas, kompyuter aloqa o'rnatadigan biror nima ham emas. Butunjahon o'rgimchak to'rini Internet doirasidagi xizmat deyish to'g'riroq. Web-serverlar deb ataluvchi ma'lum protokollardan, kompyuterlardan foydalanish orqali (chunki ular tarmokka ulangan va server dasturiy ta'minotiga ega) Internet xizmati yo'lga qo'yiladi.

Kompyuter web-server bo'lishi uchun Internetga ulangan va server dasturiy ta'minoti (DT) ga ega bo'lishi etarli. Bu DT bilan Windows, Mac OS, Unix kabi operatsion sistemalar ta'minlay oladi. Web-server har doim

Internetda “o‘tiradi” va talab qilingan tomonga kerakli informatsiyani jo‘natadi.

Web-sahifalarni yaratish bo‘yicha tavsiyalar. Sahifalarning tiplari.
Web-tarmoqlarni yaratishning umumiy tamoyillari.

Aytaylik, siz WWW (*World Wide Web*, Dunyo tarmog‘i)da o‘z bo‘g‘iningizni yaratmoqchi va joylashtirmoqchi bo‘dingiz. Uning qiziqarli, foydali va muximi ko‘p kiriladigan bo‘lishi uchun nimalar qilish kerak. Aniq javob berish kerak bo‘lgan birinchi savol: Web-bo‘g‘in nima uchun yaratilayapti? Bu savolga ko‘p narsa bog‘liq: bezash usuli, yaratish va keyingi faoliyati uchun sarflanadigan harajatlar, Web ga o‘rnatish uchun ma’lumotlarni tasvirlash formati, Web-serverning va Internet aloqasi kanalining dasturiy ta’minotiga bo‘lgan talablar va instrumentlar. Bu yerda bir necha variantlar bo‘lishi mumkin.

Agar siz qandaydir maxsulotni realizatsiya qilayotgan kompaniya uchun Web-bo‘g‘in yaratayotgan bo‘lsangiz, u holda asosiy maqsad firma to‘g‘risida ma’lumot tarqatish va maxsulot reklamasi va yana Web-magazin tashkil qilish bo‘ladi. Bunda quyidagi vazifalar yechiladi:

- kompaniya imijini o‘zgartirish va obro‘yini ko‘tarish;
- maxsulot markasini oldinga surish;
- maxsulot tug‘risidagi ma’lumotlarning yetarliligi va xaridorlar uchun narxlar;
- dilerlar tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash, maxsulot to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yetarliligi va dillerlar uchun narxlar;
- maxsulotni Internetda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish, Web-magazin tashkil qilish;
- ofisdan tashqaridagi xodimlar uchun ichki ma’lumotlarning yetarliligi.

Boshqacha variant – bu internetda tijorat bilan shug‘ullanmaydigan, balki ma’lumot tarqatadigan ilmiy yoki umumta’lim tashkilotlari uchun Web-bo‘g‘in yaratish. Bu holatda masala qidiruvni tashkil qilish va unga kirish uchun katta ma’lumotlar massivlarini yig‘ish, qayta ishlash va Web-bo‘g‘inga joylashtirish

to'g'risida boradi va so'nggi variant – siz o'zingizning shaxsiy sahifangizni Internetga joylashtirmoqchisiz.

Qo'yilgan savollarga to'g'ri javob berish uchun Web-bo'g'in mo'ljallangan foydalanuvchilar kategoriyasini aniqlash lozim. Klientlarni jalb qiluvchi va ularni ushlab turuvchi ma'lumotlar qurilmasi psixologiya asosida qurilishi kerak. Keyinchalik Web-bo'g'in bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakatlarning maqbulligi sahifaga kiruvchilarni ularga nisbatan aks harakatlariga va bu harakatlar ko'zlangan maqsadga yetishga qanchalik xizmat qilishiga ko'ra baxolanmog'i lozim.

Maqsadlar belgilab va foydalanuvchilar kategoriyalari aniqlab olingandan keyin tayorlangan ma'lumotlarni Web-dokumentlar bo'yicha taqsimlab olish, ular orasidagi bog'liqliklarni o'ylab ko'rish va qo'shimcha navigatsion imkoniyatlarni, masalan, Web-bo'g'im bo'yicha qidiruv sistemasini ko'rib chiqish kerak.

Firma Web-bo'g'imining tipik tuzilishi odatda quyidagicha tasvirlanadi:

Kompaniya to'g'risida ma'lumot. Firmaning maqsadlari va ish yuritishi usullari, uning tarixi va h. to'g'risida bayon qilish kerak. Klientlar aynan siz bilan, boshqa kompaniyalar bilan emas, hamkorlik qilib qanday foyda olishlarini ko'rsating.

Maxsulot va xizmatlar yuzasidan ma'lumot. Web-sahifaga o'zingizning maxsulotingizning rasmlarini yoki fotorasmlarini joylashtiring. Uning xususiyatlari va ustunliklarini bayon qiling va undan foydalanishga misollar keltiring. Agar maxsulotning qog'ozdagi katalogi mavjud bo'lsa, u holda uning mazmunini va strukturasi Web-bo'g'inga joylashtirish mumkin. Bu katalogning elektron variantini yaratish va yangilab turishini yengillashtiradi. Agar maxsulotga yoki xizmatlarga Internet orqali buyurtmalar qabul qilish rejalashtirilayotgan bo'lsa, u holda elektron pochta orqali qabul qilish uchun buyurtma blankasini joylashtirish kerak.

Informatsion qo'llab-quvvatlash. Bu bo'limda qo'shimcha texnik ma'lumotlar, ko'p beriladigan savollar, noto'kisliklarni bartaraf qilish uchun maslaxatlar va hokazolar e'lon qilinadi.

Yangiliklar. Xaridorlarni firma tomonidan chiqarilayotgan yangi maxsulotlar va ko'rastilayotgan yangi xizmatlar to'g'risida xabardor qilib turing, press-rilizlarni chop qiling va hokazo.

Teskari aloqa. Siz bilan qanday aloqaga kirishish mumkinligini va qaerda joylashganingiz to'g'risida xabar bering. Izoxlar formasi, mexmonlar kitobi, xaridor o'z fikrlarini jo'natishi uchun elektron pochta adreslari va h. ni joylashtiring.

Web-bo'g'inni to'ldirishda doimo ikki tamoyilni yodda tutish kerak: o'ziga xoslik va e'lon qilinayotgan materiallarning ishonchliligi.

O'ziga xoslik mazmunga qo'iladigan eng birinchi talabdir. *WWW* da shunga o'xshash ko'plab sahifalar bo'lishi mumkin. Sizning Web-bo'g'iningiz shunga o'xshash tematikadagi serverlardan farq qilishi kerak, xech bo'lmaganda diqqatni o'ziga jalb qilish uchun. O'ziga xos materiallarni joylashtirilishi sahifangizga kiruvchilar sonini orttiradi. O'ziga xos ma'lumotlar resursi yaratish uchun printsiptial jihatdan yangi narsani yaratish shart emas, mavjud resurslarni boshqacha tartibda joylashtirish mumkin, lekin bunda xaridorga kerakli materialni qidirishda ko'p vaqt sarflashga majbur qilmaslik kerak. Resurslarning o'ziga xosligini zamonaviy qidiruv sistemalari yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Obro' jihatdan kelsak, u siz ma'lumotlarni qanchalik sinchiklab tanlashingiz, tekshiringiz va o'z vaqtida yangilab turishingizga bog'liq bo'ladi.

Web- bo'g'imni yaratishda shu narsani esda tutish kerakki, uni tashkil qiluvchi alohida dokumentlar bir xil bezash usuli va navigatsion vositalar bilan birlashtirilishi kerak. Yagona bezash usuli – bu professional Web-bo'g'imni havaskor Web-bo'g'inlardan farqlovchi ko'rsatkichlardan biridir. Bir xil ko'rinishda qilingan dokumentlar tufayli foydalanuvchilar sizning Web-bo'g'imingizni boshqalardan ajrata olishadi va eslab qolishadi. Bu dokumentlar

xuddi ikki tomchi suvdek bir-biriga o‘hshashi kerakligini bildirmaydi, lekin umumiy g‘oya, yagona usul doimo bo‘lishi kerak.

Shu narsa sahifalar bo‘ylab navigatsion vositalarga ham tegishli. Web-bo‘g‘inga kiruvchi uni xuddi siz kabi yaxshi biladi deb o‘ylamaslik kerak. U hozir o‘zining qaerda turganligini va boshqa hohlagan joyga qanday o‘tishi mumkinligini qiyinchiliksiz bila olishi kerak. Birinchi sahifaga, qidiruv dasturiga yoki Web-bo‘g‘in sxemasiga o‘ta olish imkoniyati ko‘rib qo‘yilishi kerak.

Bundan tashqari usulning bir xilligi beqash va navigatsiya (ma’lumotlar to‘ldirmasdan)ning faqatgina oddiy elementlariga ega shablon- sahifalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ularning yordamida yangi sahifalarni tez va unumli tarzda yaratish va uni yaratishda ishni bir necha kishiga taqsimlash mumkin. Tayyor sahifani olishda shablondan foydalanishda unga faqatgina kerakli ma’lumotlarni kiritiladi. Ketma-ketlilik, mantiqiylik, doimiylik – yaxshi Web-bo‘g‘in uchun kerak bo‘ladigan xususiyatlar. HTML 4.0 da paydo bo‘lgan usullarning kaskadli jadvallari sizning Web-bo‘g‘iningiz stilini hosil qilish va o‘zgartirish bo‘yicha qilinadigan ishlarni anchagina soddalashtiradi. Ularning bazi bir imkoniyatlari to‘g‘risida quyida hikoya qilinadi, alohida bo‘lim esa ulaga bag‘ishlanadi.

Maqsadlar aniqlanib, struktura berilgan va matnli va grafik ma’lumotlar yig‘ilgandan keyin Web-bo‘g‘inning tashqi ko‘rinishini ishlab chiqish kerak. U yana erishish kerak bo‘lgan maqsadlarga ham bog‘liq bo‘ladi. Mumkin bo‘lgan yechimlar cpektri juda keng: mavjud sahifalarni ko‘rish va unga o‘xshashlarini yaratishdan tortib professional dizayner va rassomlarga murojaat qilishgacha. Shu bilan bir vaqtda Web-bo‘g‘in tashkil topgan Web-dokumentlarni qurishning o‘rnashib ulgurgan qoidalarini ham yodda tutish kerak.

Struktura. Bugungi kunda dokument strukturasi to‘grisidagi qarashlar qat’iylashdi. Web-dokument o‘zida quyidagi bo‘limlarga ega bo‘lishi kerak: sarlavha, kompaniya nomi, navigatsion panel, hususiy mazmun, kontakt

ma'lumotlari, yangilanish sanasi va vaqti, mualliflik xuquqi va dokument statusi.

Logotip. Web-sahifani yaratishda firmaning nomi doimo ekranda bo'lishi to'g'risida qayg'urish kerak. Buning uchun har bir Web-dokumentning boshida odatda chiroyli qilib bezatilgan firma logotipi joylashtiriladi. Bundan tashqari kompaniya nomi barcha dokumentlarga kiruvchi ma'lumotlarda ham bo'lishi kerak.

Navigatsion panel. Web-dokumentdagi eng muhim bo'limlardan biri bu navigatsion panel yoki boshqaruv panelidir. *WWW* undagi gipermatnli o'tishlar e'lon qilinayotgan metrialar orasida bog'lanishlarni yuzaga keltirganligi hisobiga butun dunyoni egalladi.

Ko'plab o'tkazilgan izlanishlar ko'rsatadiki, Web-serverlarga kiruvchilar juda sabrsizdir va serverdagi ma'lumotlar bo'yicha ikki darajadadan ortiq ichkari kirishni istashmaydi. Shuning uchun katta hajmdagi Web-bo'g'imlarini yaratayotganda har qanday ma'lumot bir-ikki o'tishlardan uzoq jiydashmagan oraliq, odatda birinchi-ikkinchi darajada joylashuvchi dokumentlarni ko'rib chiqish kerak.

Sizning Web-bo'g'iningizning navigatsion paneli har bir dokumentda bo'lishi kerak. Eng avval unda Web-bo'g'im strukturasi qo'shni dokumentlarni ko'rsatuvchi "Oldinga"- "Orqaga" ("Navbatdagi"- "Oldingi") tipidagi yo'naltiruvchi o'tishlar bo'lishi kerak. Yana boshqaruv panelidan Web-bo'g'imning barcha yirik bo'limlari – birinchi darajali bo'limlariga o'tishlar bo'lishi kerak. Va nihoyat foydalanuvchi doimo Web-bo'g'imning asosiy sahifasiga qaytish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. O'tishlardan tashqari mahalliy qidiruv sistemasiga va indeksga bo'lgan yo'lni ko'rsatish kerak

Mazmun. Eng oldin shuni ta'kidlash kerakki, Web-dokumentlar oddiy gazeta yoki jurnallarga qo'yiladigan talablarga to'la javob berislari kerak: Grammatik va orfografik xatolardan holi bo'lish, berilayotgan materiallarning aniqligi va ishonchliligi va boshqalar. Bundan tashqari Web-dokument qanoatlantirishi kerak bo'lgan ko'plab maxsus talablar paydo bo'ladi.

Ko‘pincha dokumentning o‘lchamlari to‘g‘risida savol tug‘iladi: qanday sondagi sahifalar yetarli bo‘ladi? Javob birinchi qaraganda g‘alati tuyulishi mumkin: bitta ekranli oyna yoki xech qanday chegara qo‘ilmaydi. Ko‘plab izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchilar brauzerning yugurdakli polosasi bilan ishlashni yoqtirishmaydi. Ularga hammasidan ko‘proq bitta ekranga sig‘adigan sahifa yoqadi. Haqiqatdan ham siz xech qachon foydalanuvchiga bitta sahifaga joylashtirib yozilgandan ko‘proq ma’lumot bera olmaysiz. Agar bitta sahifaga sig‘dira olmasangiz, u holda yan bitta dokument yarating.

Bir ekranli sahifa ma’lumotlarni tasvirlash uchun mos o‘lchov bo‘lib chiqdi. Agar dokumentning o‘lchami bitta sahifadan o‘tib ketsa, ko‘pchilik hollarda u har biri bitta sahifadan ortiq joy egallamaydigan bir nechta mantiqiy bo‘laklarga bo‘linishi mumkin. Agar ma’lumotni mantiqiy qismlarga bo‘lishning iloji bo‘lmasa, bayon qilish usulini, ba’zan esa materialni o‘zini ham qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Hozirgi vaqtda Web-serverni bir ekranli dokumentlar asosida qurish kerak degan umumiy fikr hosil bo‘lgan. Bu qoidadan ikki holdagina chekiniladi. U WWWda e’lon qilinayotgan maqolalarga qo‘llanilmaydi va ikkinchi hol- bo‘lsih mumkin bo‘lmagan anketa formalari.

1.2. Web sahifalar yaratishga mo‘ljallangan dasturlar. HTML dasturlash tili haqida ma’lumotlar

HTML - HyperText Markup Language uchun qisqartma shakldir va u 1990 — yilda Tim Berners-Li tomonidan ishlab chiqilgan. HTML WWW-da ko‘rsatiladigan elektron hujjatlarni (sahifalar deb nomlanadi) yaratish uchun ishlatiladi.

Har bir sahifa “**HYPERLINK**” ya’ni “**KO‘PRIK**”lar orqali bir – biriga ulanadi. O‘sha ko‘priklarni bosish orqali boshqa sahifalarga o‘tib yurasiz. Siz internetda ko‘radigan har bir web sahifa HTML ning bir yoki boshqa versiyalaridan foydalanib yozilgan.

HTML kodi matn va tasvirlarni to‘g‘ri formatlashni ta‘minlaydi, shu tarzda sizning Internet brauzeringiz mo‘ljallangani kabi ko‘rsatadi. HTML bo‘lmasa, brauzer matnni elementlar yoki rasmlar yuklash sifatida qanday ko‘rsatishni bilmagan bo‘lardi.

HTML shuningdek, sahifaning asosiy tuzilishini taqdim etadi, keyin **Cascading Style Sheets** ko‘rinishini o‘zgartiradi. Biz HTML-ni web-sahifaning suyaklari (tuzilishi) va **Cascading Style Sheets** (CSS) ni esa uning terisi (tashqi ko‘rinishi) deb tushunishimiz mumkin.

Cascading Style Sheets (CSS) dasturlash tili haqida ma‘lumotlar: CSS birinchi marta 1997 yilda web-ishlab chiquvchilar yaratayotgan sahifalarning tashqi ko‘rinishini aniqlash uchun yaratildi. CSS-dan foydalanib, siz matnning rangi, shriftlar stili, paragraflar orasidagi intervali, ustunlar o‘lchami va joylashuvi, qanday fon tasvirlari yoki ranglar ishlatilganligi, joylashuv dizayni, shuningdek, turli xil ta'sirlarni o‘z ichiga oladi. CSS-ni o‘rganish va tushunish oson, va HTML-hujjat taqdimoti ustidan kuchli nazoratni ta‘minlaydi. Odatda, CSS HTML yoki XHTML formatlash tillari bilan birlashtiriladi.

CSS-ning afzalliklari: CSS vaqtni tejaydi — CSS-ni bir marta yozishingiz va bir nechta HTML sahifalarida qayta ishlatishingiz mumkin. Har bir HTML elementi uchun uslubni belgilashingiz va o‘zingiz xohlaganча web-sahifada qo‘llashingiz mumkin.

Sahifalar tezroq ko‘chiriladi — Agar siz CSS-dan foydalansangiz, siz HTML yorlig‘i (teg) xususiyatlarini har safar yozishingiz shart emas. Faqat bitta CSS qoidasini yozing va uni ushbu tegning barcha ko‘rinishlariga qo‘llang. Shunday qilib, kamroq kod tezroq yuklab olish vaqtini bildiradi.

Oson ta‘mirlash — global o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun uslubni o‘zgartiring va barcha web-sahifalardagi barcha elementlar avtomatik yangilanadi.

HTMLga super stillar — CSS HTMLga nisbatan ancha kengroq xususiyatlarga ega, shuning uchun siz HTML sahifangizga HTML xossalariga nisbatan ancha yaxshiroq ko‘rinish bera olasiz.

Global web-standartlari — Endi HTML sifati eskirgan va CSS-dan foydalanish tavsiya etiladi. Ya'ni, kelajakda brauzerlar bilan moslashishi uchun barcha HTML-sahifalarda CSS-dan foydalanishni boshlash yaxshi fikr.

Oflayn ko‘rib chiqish — CSS web-illovalarni maxfiy ravishda saqlab qo‘yishi mumkin. Buning yordamida biz offline web-saytlarni ko‘rishimiz mumkin. Kesh ham tezroq yuklash va web-saytning yaxshi ishlashini ta'minlaydi.

Platforma Mustaqillik — Skript puxta platforma mustaqilligini ta'minlaydi va eng so‘nggi brauzerlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

JavaScript dasturlash tili haqida ma’lumotlar: JavaScript — bu web-sahifalarni o‘zaro tasirini hosil qilish uchun foydalaniladigan dasturiy tildir. Bu sahifaga hayot beradi ya’ni foydalanuvchini jalb qiladigan o‘zaro tasirlashuvchi elementlar va animatsiyalar hosil qiladi. Agar bosh sahifada qidiruv qutisini ishlatgan bo‘lsangiz, yoki videoni tomosha qilgan bo‘lsangiz, u JavaScript orqali ishlayotgan bo‘lishi mumkin.

JavaScript Javaga mutlaq tegishli emas. JavaScript va Java ikki xil kompyuter tilidir, ikkalasi ham 1995 yilda ishlab chiqilgan. Java obyektga asoslangan dasturiy til bo‘lib, u kompyuter muhitida mustaqil ishlashi mumkin degan ma’noni anglatadi. Boshqa tomondan JavaScript-ni web-ga asoslangan dasturning bir qismi sifatida ishlashga mo‘ljallangan matn asosida dasturlash tilidir desak bo‘ladi. Webga asoslangan muhitda ishga tushishidan oldin tuzilishi kerak bo‘lgan Java dasturlaridan farqli o‘laroq, JavaScript HTMLga birlashtirish uchun mo‘ljallangan. Barcha katta web-brauzerlar JavaScript-ni qo‘llab-quvvatlaydi.

JavaScript dan foydalanish va yozish. JavaScript haqida eng muhim narsa, uni web-kodingizdan foydalanish uchun qanday yozishni bilishingizga hojati yo‘q. Onlaynda bepul JavaScripts-ni topishingiz mumkin. Bunday

buyruqlardan (kodlardan) foydalanish uchun bilishingiz kerak bo'lgan yagona narsa, taqdim etilgan kodni web-saytingizdagi to'g'ri joylarga qanday joylashtirishdir.

JavaScript-dan foydalanish uchun yozishga hojat bo'lmasa-da, ayrim kod yozuvchilar buni qanday qilishni bilishni istashadi. JavaScriptda mavjud kodni yaratish uchun maxsus dastur talab qilinmaydi. Windows uchun Notepad kabi tekis muharriri sizning JavaScript-ni yozishingiz uchun kerak.

JavaScript va HTML boshqa narsalar. HTML va JavaScript ikki xil narsadir, lekin ular bir-birini to'ldiradi. HTML — statik web-kontentni aniqlash uchun mo'ljallangan formatlash tili. Bu web-sahifani uning asosiy tuzilishi bilan ta'minlaydi. JavaScript bu sahifadagi dinamik vazifalarni, masalan, animatsiya yoki qidiruv maydonchasini bajarish uchun mo'ljallangan dasturiy tildir. JavaScript web-saytning HTML tizimida ishlash uchun yaratilgan va odatda bir necha marta ishlatiladi. Agar siz kod yozishni davom ettirmoqchi bo'lsangiz, ularni alohida fayllarga joylashtirsangiz JavaScript-ga osonroq kira olasiz. (.JS kengaytmasidan foydalanish ularni aniqlashda yordam beradi.) JavaScript-ni HTML-ga teg kiritish orqali bog'laysiz.

JavaScript-ning afzalliklari. JavaScript-dan foydalanishning afzalliklari — Albatta bu yerda barchasi emas, asosiylari.

Saytga darhol javob yozish — Ular ular biror narsa kiritishni unutganmi yo'qmi, sahifani qayta yuklanishini kutish shart emas.

O'zaro tasirni oshirish — Foydalanuvchilar sichqonchani bosganda yoki klaviatura orqali ularni faollashtirganida, siz interfeyslarni (kompyuter bilan foydalanuvchuga aloqa qilish imkonini beradigan qurilma) yaratishingiz mumkin.

Boyroq interfeyslar — Siz JavaScript-dan saytga tashrif buyuruvchilarga boy interfeys berish uchun drag-and-drop tarkibiy qismlari va slayder kabi narsalarni foydalanishingiz mumkin.

JavaScript-ni cheklashlar.

JavaScript-ni to'liq dasturlash tili sifatida ko'rib chiqa olmaymiz. Unda³ Quyidagi muhim xususiyatlar yo'q:

- Client-side JavaScript fayllarni o'qish yoki yozishga ruxsat bermaydi. Bu xavfsizlik sababi bilan saqlandi.
- JavaScript-ni tarmoq ilovalari uchun ishlatib bo'lmaydi, chunki bu qo'llab-quvvatlanmaydi.
- JavaScript-da hech qanday multithreading (ko'p ishlov berish) yoki multiprocessor qobiliyati yo'q.

PHP dasturlash tili haqida ma'lumotlar: PHP Hypertext Preprocessor (PHP) — web-dasturchilarga ma'lumotlar bazalari bilan o'zaro bog'langan dinamik tarkibni yaratishga imkon beruvchi dasturiy tildir. PHP asosan web-ga asoslangan dasturlar ishlab chiqish uchun ishlatiladi.⁴

Rasmus Lerdorf, PHP ning birinchi versiyasini 1994 yilda ochdi. PHP — «PHP: gipermatnli preprocessor» uchun takrorlanadigan qisqartma. PHP HTML-ga o'rnatilgan server tomoni skript tilidir. Bu dinamik tarkibni boshqarish, a'lumotlar bazalari, seanslarni kuzatish, hatto barcha elektron tijorat saytlarini yaratish uchun ishlatiladi. MySQL, PostgreSQL, Oracle, Sybase, Informix va Microsoft SQL Server kabi ommabop ma'lumotlar bazalari bilan birlashtirildi.

PHP-ning umumiy foydasi. PHP formalarni boshqarishi mumkin, ya'ni fayllardan ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni faylga saqlash, elektron pochta orqali ma'lumotlarni yuborish, foydalanuvchiga ma'lumotni qaytarish. PHP orqali ma'lumotlar bazasida elementlarni qo'shish, o'chirish, o'zgartirish kabi vazifalarni bajarishingiz mumkin. Cookie-fayllarga kirish va o'zgaruvchan parametrlar. PHP-dan foydalanib siz web-saytingizning ba'zi sahifalariga kirishni cheklashingiz mumkin. Ma'lumotlarni shifrlash mumkin.⁵

³ <https://www.w3schools.com/js/>

⁴ <http://www.php.net>

⁵ <http://www.php.net/manual>

PHP ning xususiyatlari. Beshta muhim xususiyatlar PHP ning fazilatlarini tabiiy qiladi:

- Oddiylilik
- Samaradorlik
- Xavfsizlik
- Moslashuvchanlik
- Yaqin munosabat.

1.3. PHP dasturlash tili va uning imkoniyatlari

PHP – o‘z nomini etarlicha tanitib ulgurgan, dasturlash tili hisoblanadi. Gap shundaki, boshlanishda bu uncha qiyin bo‘lmagan shaxsiy WEB – sahifalarini yaratish uchun mo‘ljallangan oddiy makrosklar to‘plamidan iborat bo‘lgan bo‘lib, PHP-personal home page (shaxsiy uy sahifasi) so‘zlarining qisqartmasidan iborat.

Tez orada u foydalanuvchilar nazariga tusha boshladi, hamda tezlik bilan takomillashib, ommalashib bordi. 1997 yildan bu til ustida programistlar guruxi ish olib boradi.

Mehnatlarning samarasida esa PHP3 keyingi versiya yaratildi. Bu PHP ning takomillashgan va zamonaviy versiya bo‘lib, unda matnlarning qayta ishlashning yangi usullari yaratildi va bu usullar Zib Zuraski va endi Gutians (Zeev, Surasky, Andi Ceutmans) ismli programistlar tomonidan yaratildi. SHuningdek tilning sintaksisida biroz o‘zgarishlar kiritilib, yangi funksiyalar qo‘shildi. YAngi versiya shu davrda sarver uchun dasturlash tillarining eng zo‘ri hisoblanib, juda ham tez ommalashib ketdi.

MySQL ma’lumotlar bazasi va Apache serveri bilan ishlash uchun PHP ning imkoniyatlari yanada kengayib bordi. Apache serveri hozirgi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan Web -server hisoblanadi va PHP tili Apache serveri uchun modul ko‘rinishida qo‘llanilishi mumkin. MySQL- bu zamonaviy ma’lumotlar bazasi bo‘lib pulsiz (tekin) tarqatiladi, shuning uchun

ham PHP ning barcha funksiyalari shu bazaga bog‘langan. Tan olish lozimki Apache, MySQL va PHP larning o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ravishda ishlashi o‘rtadagi raqobatga barham beradi.

Bu esa PHP boshqa MBSI bilan ishlamaydi degani emas. Bu texnologiya juda MBSI va Web serverlar bilan ishlash imkoniyatiga ega.

WEB sahifalarni va tarmoqni yaratish yo‘llari o‘zgarishi bilan PHP ham takomillasha bordi. 1990 - yil o‘rtalariga kelib katta tarmoqlarda ham HTML da yozilgan yuzlab statik sahifalar ishlatilar edi. hozir esa jarayon o‘zgarib bormoqda. WEB sahifalarini yaratuvchilar ma‘lumotlar bazasi bilan ishlovchi WEB sahifalarni yaratish imkoniga ega bo‘lib, foydalanuvchilarni qayta ishlash imkoniga ega bo‘lgan WEB sahifalarni yaratmoqdalar.

Ma‘lumotlarni saqlash va ma‘lumotlarga murojat qilish uchun ma‘lumotlar bazasidan foydalanish yanada aktuallashib, mobil telefonlar, raqamli televideniya va hokazolar. Turli xil qurilmalarda ma‘lumotlarni uzatishda sifatni o‘shishiga erishishmoqda.

Bu fikrlar asosida aytish mumkinki, kelgusida PHP tili yanada takomillashib o‘zining o‘ta yuqori darajadagi dasturlash tili ekanligini namoyon qiladi.

PHP turli xil sistemalarda ishlay oladi. U sistema Windows, Unix ning ko‘plab versiyalari, shuningdek Linux va hatto Macintosh bo‘lishi mumkin. PHP ko‘plab tarmoq serverlarida, xususan Apache, Microsoft Internet Information Server, Web Site Pro, Iplanet Web Server va Microsoft Personal Web Server – larda ishlashi mumkin. Agar o‘zimiz tuzgan dasturlarimizni Windows tizimida tekshirishni xoxlasak oxirgi sanab o‘tilgan serverdan foydalanishimiz mumkin, hatto Apache serveri Windows sistemasi boshqaruvida ishlasa ham.

PHP interpretatori yordamida dasturni alohida mustaqil ko‘rinishda kompilyasiya qilish mumkin. U holda dasturni mustaqil ishga tushirish mumkin. PHP tilini yaratishda ma‘lumotlar bazasi bilan bog‘lanish talablarini alohida e‘tiborga olingan. Ko‘plab ma‘lumotlar bazalarini PHP da o‘qish

mumkin. Masalan bularga Adabas D, InternetBase, Golid, dBase, mSQL, Sybase, Empress, MySQL, Velosic, FilePro, Oracle, Unixdbm, Informix va hokazolarni keltirishimiz mumkin. SHuningdek, PHP ODBC standartini ham o'qiy oladi. Ushbu qo'llanmada esa biz Linux, Apahe va MySQL serverlar asosida fikr yuritimiz. Bu uchta dasturlar majmualari keng foydalanish mumkin bo'lgan

PHP4 ni <http://www.php.net> tarmog'idan olish mumkin. Buning uchun esa, aloxida kredit kartochka talab qilinmaydi.

PHP ni web-tarmog'i progromistlar uchun ajoyib manba hisoblanadi. <http://www.php.net/manual> adresida boshqa progromistlarning izohlari, fikrlash va tanqidiy fikrlari keltirilgan ma'lumotlarni va qo'llanmalarni olish mumkin. Bu ko'llanmalarni turli xil formatlarda olish mumkin.

PHP.ini fayli. PHP ni o'rnatib bo'lgandan so'ng, uning nastroykasini PHP.ini fayli yordamida o'zgartirish mumkin. Agar kompyuterga UNIX operasion sistemasi o'rnatilgan bo'lsa, bu fayl /usr/local/lib katologida, agar Windows operasion sistemasi o'rnatilgan bo'lsa, Windows katologida joylashgan bo'ladi.

Agar dasturlash tili omma uchun (tekin) bo'lsa, albatta yordamni Internet dan etarlicha topish mumkin. PHP tili bo'yicha siz bilan fikr almasha oluvchi yana bir yaxshi manba bo'lib, u PHP bilimlar bazasi, yani knowledge Base deb nomlanadi, va uni <http://www.fagts.com/knowledge-base/index.phtml> deb nomlanadi.

Birinchi dastur.

Biz yuqorida PHP ni o'rnatish va o'rganish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni oldik. Endi esa, PHP da birinchi dasturimizni yaratishga harakat qilamiz. PHP da dastur tuzish uchun HTML dagi kabi WEB-sahifa yaratishni bilishimiz lozim.

Ushbu dasturda esa, Quyidagilarni o'rganishga harakat qilamiz:

PHP-programmalarini yaratish, serverga nusxasini ko‘chirish va ishga tushirish PHP komandalari va HTML matnini bitta hujjatga bog‘lash, Dastur matnini tushintirish uchun izoh keltirish

PHP-dasturni tuzish uchun ixtiyoriy matn redaktorini ishga tushiramiz. PHP – dasturi HTML- hujjatlari kabi oddiy matndan tashkil topadi. SHuning uchun dasturni ixtiyoriy matn redaktorida, agar unix bo‘lsa, VI-yoki Emacs da ham yozish mumkin. quyidagi dastur matnini kiritaylik va uni first.php deb saqlaylik:

```
< ? php
    print "hello web";
?>
```

ushbu dastur kengaytmasi albatta. PHP bo‘lishi shart. Agar dastur server emas, balki kletn kompyuterida tuzilgan bo‘lsa, dastur faylini serverga kiritish uchun FTP servisdan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Agar dasturda xatoliklar mavjud bo‘lmasa, u holda natijani brauzer oynasida ko‘rish mumkin.

Agar dasturda yoki uning kengaytmasida xatolik mavjud bo‘lsa, brauzer oynasida dastur matnining o‘zi namoyon bo‘ladi.

Jadvalda keltirilgan standart va dasturiy teglar PHP ning ixtiyoriy konfiguratsiyasida ishlaydi. qisqa va ASP teglar ishlashi uchun php.ini faylida aniq keltirilgan bo‘lishi lozim. qisqa teglar foydalanilishi uchun php.ini faylida quyidagi direktiva yozilgan bo‘lishi lozim:

Php.ini faylini taxrir qilib, ixtiyoriy direktivadan foydalanish mumkin. quyidagi barcha teglar uchun yozilgan dastur matnini ko‘raylik:

```
<?
    print "hello web";
?>
<? php
    print "hello web";
?>
<%
```

```
print "hello web";
%>
<script language="php">
print "hello web";
</script>
```

print () funksiyasi

Bu funksiya ma'lumotlarni ekranga chop qilish uchun foydalaniladi. Ekranga beriladigan ma'lumotlar () ichiga beriladi. Ekranga beriladigan har bir ma'lumot " " ichiga berilishi lozim. SHuningdek Print dan keyin () qo'yish ham, qo'ymaslik ham mumkin.

HTML va PHP ning birgalikda ishlatilishi. Quyida keltirib o'tiladigan dastur faqat PHP komandalaridan tashkil topgan. Lekin ochuvchi va yopuvchi teglar qo'shish orqali HTML - tekst qo'shib HTML va PHP ning aralash hujjatning yaratish mumkin:

```
<html>
<head>
  <title> php va html hujjati </title>
</head>
<body>
<b>
<?php>
  print "hello world!";
?>
</b>
</body>
</html>
```

Agar dasturni saqlab (.PHP) uni brauzer orqali ishga tushirsak, ekranda (jirno'y) hello world! hosil bo'ladi.

PHP-dasturida komentariyalar (izohlar)

Ma'lumki, dasturni tuzish jarayonida hamma narsa tushunarli va oddiy dasturni ham tushunib olish qiyin bo'lib qoladi. SHuning uchun ham, dastur yozish jarayonida albatta izoh keltirib borish zarur, chunki sizni dasturingizdan foydalanuvchiga biroz osonroq bo'ladi.

Komentariya (izoh) - bu interpretorda qayta ishlanmaydigan, dasturdagi oddiy matn hisoblanadi. Izoh dasturni tushinish uchun engillik yaratish maqsadida foydalaniladi.

O'zgarmlar. O'garuvchilardan foydalanish ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning eng ajoyib usullaridan biri hisoblanadi. Biz bu o'zgaruvchilar qiymatini, hattoki tipini xoxlagan vaqtimizda o'zgartira olishimiz mumkin. Lekin dastur yaratish jarayonida shunday holat bo'lishini istab qolamizki, bunda bizni bergan qiymatimiz yoki ma'lumotimiz dasturni yaratish va foydalanish jarayonida, kerak bo'lsa tasodifan o'zgarib ketishdan holi bo'lsin, ya'ni o'zgarmlar. Buning uchun o'zgarmlardan foydalanishimiz zarur. RNR4 da o'zgarmlar bilan ishlovchi define() funksiyasi manashu maksadda ishlatiladi. Bu funksiya yordamida yaratilgan o'zgarmlar (konstanta) dasturni yaratish va foydalanish jarayonida o'zgartirilmaydi. O'zgarmlarni tashkil etish uchun define() funksiyasida o'zgarmlar nomi va uning qiymati beriladi.

Define ("nomi",42)

O'zgarmlar qabul qiladigan ma'lumot qiymat va simvol bo'lishi mumkin. O'zgarmlar nomi esa fakat katta harflar bilan beriladi. O'zgarmlardan foydalanishda faqat katta harflar bilan \$ belgisini oldiga qo'ymasdan yoziladi.

Quyidagi o'zgarmlardan foydalanish dasturda qanday ishlatilishiga misol sifatida keltirib o'tamiz:

```
<html>
<head>
<title>Uzgarmlarni tashkil etish</title>
</head>
<body>
<?php
```

```
define("USER",Gerald);
print "Welcome".USER;
?>
</body>
</html>
```

Agar dasturga ahamiyat bersak, «Welcome» yozuvidan so‘ng konkatenasiya (.) belgisidan foydalandik.

RNRda yana bir imkoniyat borki, u foydalanuvchiga avtomatik ravishda bir nechta o‘zgarma tashkil etib beradi. Masalan, `_FILE_` o‘zgarma fakat foydalanilayotgan aktiv fayl nomini o‘zida saqlaydi. `_LINE_` ishlatilayotgan fayldagi aktiv katorni aniklab beradi va x.k.

Ma’lumki, jarayonlar chizikli, takrorlanuvchi va tarmoklanuvchi bo‘lishi mumkin. Xozirgacha urgangan va kurgan misollarimiz fakat chizikli jarayonga tegishli edi. Bu mavzuning asosiy maksadi esa, RNR4 tilida tarmoklanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlar uchun qanday funksiya, prosedura va instruksiyalardan foydalanilishi bilan tanishtirishdan iborat. iz asosan Quyidagilarni urganamiz:

if instruksiyasi yordamida dasturdagi ba’zi bir shartlarni qanday tekshirilishi va bajarilishi;

SHeart bajarilmagan kism uchun dasturning alternativ bo‘limini =anday yaratish;

Switch yordamida ba’zi bir ifodalarni qiymatini e’tiborga olgan holda dastur qismini qanday yaratish ;

While yordamida siklik jarayonni tashkil etish;

For yordamida siklik jarayonlarni tashkil etish;

Siklik jarayonlarni tuxtatish qanday bajariladi;

Bir necha siklik jarayonlarni birgalikda qanday tashkil etish.

RNR4 da shartli jarayonlarni ifodalash. Juda kup dasturlar ma’lum bir shartlar sababli uzining holatini o‘zgartirib turadi. Ma’lum bir anik shartlar asosida dasturning takomillashuvchi yaratilayotgan Web sahifalarning

dinamikligini yanada mustaxkamlaydi. Boshka dasturlash tillari kabi RNR4 tili ham shartli instruksiyalardan foydalanadi. Bu instruksiya RNR4 da if yordamida amalga oshiriladi.

IF operatoridan foydalanish. IF instruksiyasidan foydalanilayot-ganda hisoblash jarayoni uchun shart kavslar ichida tekshiriladi. Agar shart bajarilsa (true bo‘lsa) blok ichidagi ifoda bajariladi, aks holda blok ichidagi ifoda tulik tashlab yuboriladi. IF instruksiyasining umumiy kurinishdagi sxemasini Quyidagicha keltirish mumkin:

```
IF (shart)
{
// bu erdagi ifoda agar berilayotgan shart rost bo‘lsa bajariladi
}
```

Keltirib utilgan umumiy sxemani yanada anikrok tushunib olish uchun Quyidagi misolni keltirib o‘taylik.

```
<html>
<head>
<title>IF yordamida shartli ifodalarni kullash </title>
</head>
<body>
<?php
$mod="sad";
if ($mod="happy")
{
print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!"
}
?>
</body>
</html>
```

Operator yordamida \$mood O‘zgaruvchi =iymatini “happy” katori bilan solishtiramiz. Agar shart bajarilsa, blok ichidagi yozuv ekranga beriladi, aks

holda berilmaydi. Keltirib utilgan misolda blok ichidagi instruksiya kup emas, shuning uchun bu blokni yanada ixchamrok kurinishda Quyidagicha keltirish mumkin:

```
if ($mod="happy")
print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!";
```

IF instruksiyasining else bloki. IF instruksiyasini keltirish jarayonida beriladigan shart bajarilmasa alternativ blok keltirishga majbur bo‘lib kolinadi. Bunning uchun esa, if shartdan keyingi blokdan sung else blokini ham berish lozim. Umumiy holda bu holatni Quyidagicha keltirish mumkin:

```
If (shart)
{
//bu blokdagi ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bulganda bajariladi
}
else
{
// bu blokdagi ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bulganda bajariladi
}
```

Keltirib utilgan umumiy sxemani yanada mustaxkamlash uchun Quyidagi misolni kurib o‘taylik:

```
<html>
<head>
<title>IF yordamida shartli ifodalarni kullash va else blokini tekshirish
</title>
</head>
<body>
<?php
$mod="sad";
if ($mod="happy")
{
print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!"
```

```

}
else
{
print "Menda $mood";
}
?>
</body>
</html>

```

\$mood O‘zgaruvchisi bu misolda sad katorini kabul kiladi, bu esa “happy” katori bilan bir xil emas, shuning uchun ham shart bajarilmaydi. Bu esa, birinchi blokni bajarilmasligini bildirib, keyingi blokda keltirib utilgan ifodani ekranga berilishi bildiradi.

IF instruksiyada keltiriladigan else bloki murakkab masalalarni echish imkoniyatini beradi. RNR4 tilida esa, yanada murakkabrok bulgan shartlarni tekshirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib bu shartlarni biz keyingi mavzularda keltirib o‘tamiz.

Funksiya. Funksiya – bu yaxshi ishlangan dasturning eng asosiy komponenti hisoblanadi. Ular yaratilayotgan dasturning tushunarligini juda ham yaxshi bo‘lishiga va foydalanishga qulay bo‘lishiga katta yordam beradi. Ixtiyoriy yaratilayotgan dastur uning yordamisiz biror katta natijaga erishgan emas. Aytmoqchimizki, funksiyalar dasturlash bilan shug‘ullanishni boshlaganlar va davom ettirayotgan uchun juda ham zarur va qulay hisoblanadi. Funksiyalar va ularning yordamida ko‘p ishlatiluvchi bir xil tipdagi o‘zgaruvchilar ustida ko‘p martalik hisoblashlarni qanday qilib ixchamlashtirish mumkinligini o‘rganamiz.⁶

